

## O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI.O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY DASTURLARNI AHAMYATI

**Temurov Umidjon Pardaboy o'g'li**  
*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti*  
*TOUP-32U 3-kurs Bakalavr*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish masalalari, turizm infratuzilmasini isloh etish, moliyaviy qo'yilmalarni kengaytirish imkoniyatlari va shu kabi masalalar ko'rib chiqiladi*

**Kalit so'zlar:** *turizm, infratuzilma, struktura, davlat dasturi, moliya, turist, industriya.*

Bugungi kunda davlatimizda turizm sohasini rivojlantirishga oid qator islohotlar olib borilmoqda. Hukumat qarorlari, berilayotgan imtiyozlar, yaratilayotgan shartsharoitlar bunga misol. Jumladan O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi O'RBQ-549-sonli Qonuni qabul qilindi. Qonunda turizm sohasida yaratish lozim bo'lgan zamonaviy dasturlar, uni monitoringini olib borish, rivojlantirish tartibi belgilab berilgan.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Hududlar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ko'pincha ijtimoiy soha va turizm tarmog'ining rivojlanishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, hozirgi vaqtda turizm milliy iqtisodiyotlarning yetakchi tarmog'i sifatida muayyan mamlakatlarning barqaror rivojlanishida o'zining ahamiyatli ulushiga ega. Turizm sohasi inson salohiyati rivojlanishining muhim omili bo'lib bormoqda. Shunday ekan, bu muayyan mamlakat yoki hududda yangi ish o'rinlarining yaratilishi, qo'shimcha investitsiyalarning jalb qilinishi, soliq tushumlarining oshishi, madaniy, tarixiy va tabiiy boyliklarni saqlash hamda oqilona foydalanishda o'z aksinitopmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnoma- sida «Turizmni rivojlantirish bo'yicha 2021 yilda ham izchil islohotlarni davom ettiramiz. Ayniqsa, ziyorat turizmi va ichki turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, turizm ob'ektlari atrofidagi yer maydonlari, suv va yo'l infratuzilmalarini yaxshilash uchun budjetdan 1 trillion so'm ajratiladi» deb deb ta'kidlanishi muhim yo'nalish sifatida belgilab berilgan. Bu esa hududiy turizm infratuzilmasi tarkibiy qism elementlari va funksiyalarini ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etgan holda, uning rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni zarurat etadi.

Yillar	Turizm sohasiga kiritilgan investitsiyalar		
	Hajmi, mlrd, so'm	azis yiliga nisbatan o'sishi, %	ohada investitsiyalarning yalpi investitsiyalardagi ulishi
2010	57,8	100,0	0,3
2011	21,2	17,7	0,3
2012	14,7	43,9	0,3
2013	06,3	69,5	0,1
2014	31,4	0 marta	0,1
2015	51,4	4 marta	0,1
2016	052,1	9 marta	0,2
2017	428,3	0 marta	0,1
2018	956,1	6 marta	0,8
2019	741,6	8 marta	0,9

E'tiborli jihati shundaki, sayyohlar sonining oshishi turli hududlarda turlicha ro'y bermoqda. Misol uchun, Markaziy Osiyo mamlakatlaridan tashrif buyurganlar soni yillik o'rtacha 22-25 foiz atrofida ko'paygan bo'lsa, uzoq xorijiy mamlakatlar fuqarolari orasida yillik o'sish 50 foizni tashkil etdi. Shu bilan bir qatorda ichki turizm ko'rsatkichlarida ham ijobiy natijalar qayd etildi. 2016 yil bilan solishtirganda 2019 yilda mahalliy sayyohlarning soni deyarli 2 barobarga ko'payib, 14,7 millionga yetdi.

Shu borada turizmning industriyasiga ham ahamiyat berib o'tsak, Turizm industriyasini rivojlantirishda yetakchi mamlakatlar tajribasidan foydalanish yo'llari Turistik safarlar sonining ortishi, ular jug'rofiyasining kengayishi, transport vositalarining rivojlanishi munosabati bilan xalqaro tashkilotlar davlatlar vahukumatlarning diqqat-e'tiborini turizmni rivojlantirish muammolari hamda milliy turizm tashkilotlarining yangi mavqeiga qaratmoqdalar. 1921 boshlab Millatlar ligasi, BMTning 1975 yildan boshlab esa Jahon turizm tashkilotining rahbarligi ostida turizm muammolariga bag'ishlangan 30 dan ortiq xalqaro anjumanlar, kongresslar va tadbirlar o'tkazildi. 1995 yil mart oyida Kadis shahrida (Ispaniya) JTT rahbarligi ostida turizm bo'yicha xalqaro forum o'tkazildi va unda jahonning 52 mamlakatidan kelgan parlamentchilar ishtirok etdilar. Ushbu forum shunday xulosaga keldiki, davlatlar turizm rivoji uchun katta ahamiyatga molik quyidagi muammolarni yechishda yordam berishlari zarur:

- turistik rasmiyatchilikni tartibga solish va turistlar xavfsizligini oshirish;
- turizm infratuzilmasi, shu jumladan transport va kommunikatsiyalarni rivojlantirish;
- turistik tashkilotlar rahbarlari va xizmatchilarini o'qitish uchun sharoitlar yaratish;
- turistik ob'ektlar va safar manzillarida ekologik normalarga rioya qilishni ta'minlash;

- turistlar huquqlarini himoya qilish;
- turistik firmalar uchun imtiyozli soliq tizimini ta'minlash;
- turizm qabul kilingan xalqaro mezonlar va normalar asosida ob'ektiv statistika hisoboti va nazoratini amalga oshirish imkoniyatini beradigan iqtisodiy va statistic mexanizmlardan foydalanish;

- turizm uchun foydali bo'lgan mamlakat timsolini shakllantirish yo'li bilan milliy turmahsulotlarni chet-el bozorlariga olib kirish.

Quyidagilar bir qator xorijiy mamlakatlarda turizm rivojini qo'llabquvvatlashning iqtisodiy va ma'muriy mexanizmlari bo'lib xizmat qiladi:

- soliq imtiyozlari, subsidiya va dotatsiyalar;
- turizm rivojini va turistik xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishni qo'llab-quvvatlovchi milliy qonunchilik va normativ hujjatlari;
- mamlakatga kirish va undan chiqish paytida pasport va viza cheklashlarini kamaytirish;

- narxlarni qisqartirish va boshqa turli xil imtiyozlar berish yo'li bilan nomavsumiy turizmni rag'batlantirish;

- ijtimoiy turizmni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash;
- turistlar xavfsizligiga qo'yiladigan talablarni kuchaytirish

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda sayyohlik sohasini innovatsiya va raqamlashtirish orqali o'zgartirish zaruriyati mavjud. Egallanmagan imkoniyat sifatida endi rivojlanayotgan agro va etno turizm kabi bozor segmentlarini rivojlantirish lozim.

Turizmni rivojlantirishning jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, mazkur industriyani yuqori daromadli sohaga aylantirish uchun davlat va xususiy sektordagi barcha ishtirokchilarning sa'y-harakatlarini birlashtirish va mustahkamlash zarur. Bunda, hukumatning roli xalqaro, hukumat va xususiy sektor darajalarida turizm sohasidagi rivojlanish siyosatini muvofiqlashtirish va rejalashtirishni ta'minlashdir. Mavjud muammolarni tezkor va sifatli yechish pandemiyadan keyingi davrda O'zbekistonda turizm imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2016-yil 2-dekabr. PQ-2666-son.

2. "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2018-yil 6-fevral. PQ-3510-son.

3. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.